

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAXIBOV ALIJON XUDOYKULOVICH

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY-PEDAGOGIK
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Saxibov Alijon Xudoykulovich

Chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy-
pedagogik asoslarini takomillashtirish..... 3

Сахибов Алижон Худойкулович

Совершенствование теоретико-педагогических основ применения
цифровых технологий в допризывном военном образовании..... 21

Sahibov Alijon Khudoykulovich

Improving the theoretical and pedagogical foundations of the using digital
technology in pre-conscription military education..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 48

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAXIBOV ALIJON XUDOYKULOVICH

**CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIMDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY-PEDAGOGIK
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.Phd/Ped8516-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Obidov Azamat Erkinjonovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Dilmurad Narmuratovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ibraymov Askar Esbosinovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "25" 08 kuni soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71-202-01-20; faks: (+998) 71-202-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (40 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71-203-01-22; info@bimm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "06" 08 kuni tarqatildi.
(2026-yil "06" 08 dagi 13 -raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda harbiy ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish juda dolzarbdir, chunki bu texnologiyalar harbiylar tayyorgarligini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish, samaradorligini oshirish va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar harbiy pedagog kadrlarni tayyorlashda simulyatsiyalar, virtual voqelik, sun'iy intellekt va masofaviy ta'lim kabi yangi usullardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, kiberxavfsizlik va axborot urushi sohasida mutaxassislarni tayyorlash global darajada muhim bo'lib qolmoqda. Xususan, 2024-yil tashkil etilgan NATOning Vashington sammitida barcha qurolli kuchlar (havo, yer, dengiz, kiber va fazo) o'rtasidagi o'zaro integratsiyani ta'minlash uchun raqamli platformalar hamda sun'iy intellekt bilan boshqariladigan simulyatsiyalar joriy etish deklaratsiyasi belgilangan va raqamli texnologiyalar harbiy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish bo'yicha eng maqbul usuli sifatida muhim ahamiyat kasb etishi belgilab qo'yilgan.

Dunyoda harbiy ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, harbiy ta'limning sifatini oshirish va yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish jarayonida simulyatorlar, virtual va qo'shilgan reallik texnologiyalarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu sohada AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda kadrlar tayyorlashda zamonaviy simulyatsion texnologiyalarni joriy etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Maxsus dasturiy ta'minot va interaktiv ta'lim platformalari orqali harbiy harakatlarni virtual tarzda o'rganish, harbiy ta'lim tizimida raqamli o'quv platformalari va simulyatsiya dasturlari orqali zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, harbiy ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalari yordamida taktik mashg'ulotlar va strategik o'yinlar o'tkazishning nazariy asoslarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda raqamli transformatsiya sharoitida harbiy ta'lim jarayonida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, harbiy ta'lim sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maxsus elektron platformalar, raqamli resurslar, virtual darslar va simulyatsiya texnologiyalari harbiy xizmatchilarning nazariy hamda amaliy bilimlarini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynamoqda. "Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida yangi pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishni rivojlantirish, kompyuter texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish"¹ kabilar muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa chaqiriqqacha harbiy ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini asoslash, chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishning tashkiliy-texnologik elementlari (shakl, metod va vositalari)ni

¹ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020-y.

aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-381-son “O‘q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son “Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” haqidagi qarorlarida hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish yo‘llari A.Abduqodirov, M.Aripov, A.Askarov, U.Begimqulov, H.Begimqulov, I.Eshmamatov, M.Lutfillayev, M.Mamarajabov, A.Obidov, N.Taylakov, O.To‘raqulov, Sh.Pozilova, J.Xamidov, F.Raximov, A.Safarov, A.Redjaboyev, U.Temirova, T.Shoymardonov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini bajarganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlaridan N.Goncharova, J.Karbozova, V.Kuklev, R.Nasibullov, A.Obrubova, A.Uvarovlarning tadqiqotlarida elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish hamda masofaviy ta’limda turli o‘quv kurslarini yaratish muammolari atroflicha o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan P.Alfred, K.Barker, A.Kameas, J.Leng, T.Monaha, S.Thakral, D.Fällman, A.Shorgolar ta’lim jarayonini optimallashtirish, simulyatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt (AI), virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) kabi yangi usullarni ta’lim jarayoniga joriy etish muammosining nazariy hamda amaliy asoslarini yoritib berishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent kimyo-

texnologiya instituti Yangiyer filiali ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Bo‘lajak muhandis kadrlarning umumkasbiy kompetensiyalarini innovatsion va raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish mexanizmi” (2024-2025-yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik shart – sharoitlarini takomillashtirish;

chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik modelini takomillashtirish;

chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayonini takomillashtirish;

chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning metodik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutining 393 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga doir pedagogik, psixologik, harbiy va metodik manbalarni o‘rganish, nazariy-qiyosiy tahlil, kompyuter texnologiyalarini qo‘llashga oid xorijiy hamda mahalliy tajribalarni o‘rganish; ijtimoiy (anketa so‘rovi, test), pedagogik tajriba, matematik statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari ta’lim jarayonining o‘quv kontentining innovatsion dizayn va analitik-refleksiv sinergiyasi uzviyligini ta’minlovchi adaptiv va proaktiv himoya mexanizmini konvergensiyaning transintegrativ uyg‘unlashuvi asosida takomillashtirilgan;

ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning konseptual metodik tizimiga asoslangan pedagogik modeli differensial hamda individual rivojlantirish kontekstini innovatsion, o‘zgaruvchan o‘quv elementlarini transformatsiyalanuvchi komponentlarini variativligini ifodalovchi metarefleksivligini ICAP (Interactive – Constructive – Active – Passive) sikliga uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayoni talabalarning maxsus tayyorgarligini rivojlantiruvchi sun’iy intellekt (AI), Data Science, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalariga asoslangan pedagogik-didaktik usullarni rivojlantiruvchi OODA (Observe-Orient-Decide-Act) modeliga interaktiv va multimodal o‘quv muhitida integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning metodik ta'minoti o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan dasturlash, loyiha, mobil viktorina, bulutli tadqiqot kabi innovatsion ta'lim metodlarini transdisiplinar integratsiyasini ta'minlovchi ABL (Agile-Blended Learning) metodologiyasini o'quv jarayonlarida maqsadli qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini raqamli texnologiyalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga mo'ljallangan "Chaqiriqqacha harbiy ta'limda axborot texnologiyalari" nomli metodik qo'llanma yaratilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchi va talabalari uchun "Otish tayyorgarligi" (№ DGU 48532) fanidan elektron o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlarning o'rganilganligi, omillari va yo'llarining aniqlanganligi, "Otish tayyorgarligi" faniga oid o'quv materiallarini axborot texnologiyalari yordamida o'qitish imkoniyatining yaratilganligi hamda talabalarda chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha shakllangan nazariy bilim va amaliy malakalar darajasini aniqlovchi mezonlarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati chaqiriqqacha harbiy ta'limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarining yoritib berilganligi, chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning pedagogik modelining amaliy komponentining takomillashtirilganligi, "Otish tayyorgarligi" fani bo'yicha elektron o'quv qo'llanmaning yaratilganligi, chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim jarayonining o'quv kontentining innovatsion dizayn va analitik-refleksiv sinergiyasi uzviyligini ta'minlovchi adaptiv va proaktiv himoya mexanizmini konvergensiyaning transintegrativ uyg'unlashuvi asosida takomillashtirishga doir takliflardan pedagogika sohasi uchun didaktik materiallar ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-sentyabrdagi 03/40-2681-son ma'lumotnomasi). Natijada chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining raqamli kompetensiyalarini loyihalashga xizmat qilgan;

ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning konseptual metodik tizimiga asoslangan pedagogik modeli differensial hamda individual rivojlantirish kontekstini innovatsion, o'zgaruvchan o'quv elementlarini transformatsiyalanuvchi komponentlarini variativligini ifodalovchi metarefleksivligini ICAP (Interactive – Constructive – Active – Passive) sikliga uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan TATU huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi Φ3-20200929308 "Axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarida foydalanuvchilarni biometrik avtorizatsiyalashtirishning integrallashgan texnologiyalari nazariy asoslarini yaratish" (2021-2024-yy.) fundamental loyihasi doirasida masofaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash algoritmini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-sentyabrdagi 03/40-2681-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayoni talabalarning maxsus tayyorgarligini rivojlantiruvchi sun'iy intellekt (AI), Data Science, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalariga asoslangan pedagogik-didaktik usullarni rivojlantiruvchi OODA (Observe-Orient-Decide-Act) modeliga interaktiv va multimodal o'quv muhitida integratsiyalashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalari "Chaqiriqqacha harbiy ta'limda axborot texnologiyalari" nomli metodik qo'llanma mazmunida aks ettirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy Kengashi bayonnomasi). Natijada raqamli ta'minotdan foydalangan holda talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil qilish takomillashtirilgan;

chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishning metodik ta'minoti o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan dasturlash, loyiha, mobil viktorina, bulutli tadqiqot kabi innovatsion ta'lim metodlarini transdisiplinar integratsiyasini ta'minlovchi ABL (Agile-Blended Learning) metodologiyasini o'quv jarayonlarida maqsadli qo'llash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan TATU huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi Φ3-20200929308 "Axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarida foydalanuvchilarni biometrik avtorizatsiyalashtirishning integrallashgan texnologiyalari nazariy asoslarini yaratish" (2021-2024-yy.) fundamental loyihasining bo'lajak o'qituvchilarning axborot texnologiyalarini qo'llashga doir kompetentligini rivojlantirish qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-sentabrdagi 03/40-2681-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha nazariy bilim va amaliy malakalarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy-uslubiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 8 paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti ochib berilgan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, pedagogik dasturiy vositalarini joriy etishga doir darslik, o'quv qo'llanmalar, dissertatsiyalar tahlil qilingan va zaruriy xulosalarga kelingan.

Ta'lim va tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalarni keng miqyosda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ayni paytda, oliy ta'lim muassasalari uchun raqamli ta'lim muhitlarini yaratish, unga mos ta'lim texnologiyalarini shakllantirish va ulardan foydalangan holda talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning zamonaviy o'qitish usullarini takomillashtirish orqali pedagogik jarayonni kompleks tashkil etish, bir talabaning individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish va keyingi kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan umumiy ta'lim hamda kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun, ayni paytda, chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalar evolutsiyasiga ko'ra, biz hozirgi zamonga tegishli deb bilgan ko'plab ta'lim va tarbiyaga oid muammolar ilgari ham mavjud bo'lgan. Ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'limiy muammolarining rivojlanish darajasini o'rganish natijasida chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari F.Raximov, A.Safarov, A.Redjaboyev, U.Temirova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

“O'tish tayyorgarligi” fanining asosiy maqsadi yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'lib, oliy ta'limning davlat ta'lim standarti asosiy qoidalarida hamda “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi malaka talabida aks etadi. Bu yuqori kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda, ta'lim subyektlarida o'zini o'zi tarbiyalash, o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqillik va o'zini o'zi anglash qobiliyatini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan mutaxassisni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosiga olimlarning qiziqishi susaymayapti.

Sohani tadqiq qilishning nazariy va amaliy g'oyalari fanni rivojlanishining chuqur ildizini topish unda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompleks murakkab ijtimoiy, texnologik, tabiiy yoki madaniy

muammolarga ko'p qirrali hamda kontekstual yechim topishga yo'naltirilgan o'quv va tadqiqot faoliyati, ya'ni transdisiplinar integratsiya belgilandi.

Tadqiqot ishi dolzarbligi va ahamiyatidan kelib chiqib sohaga doir olimlarning ishlari tahlili asosida chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

Texnologik infratuzilma yetishmasligi – Chaqiriqqacha harbiy ta'limda texnologik infratuzilma yetishmasligi hamda o'quv materiallarining raqamli texnologiyalarga moslashtirilmaganligi pedagogik jarayonni qiyinlashtiruvchi sabablardan biri hisoblanadi.

Kadrlarning raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan malakasining yetarli emasligi – O'qituvchilarning barcha raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega emasligi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'quv fanlarining aksariyat qismini amaliy o'quv mashg'ulotlari tashkil etadi. Mazkur o'quv fanlarini raqamli texnologiyalarning dasturiy vositalari yordamida turli elektron o'quv adabiyotlariga bo'lgan talablar, an'anaviy o'qitish adabiyotlari, ko'rgazmali qurollar uzluksiz ta'lim tizimiga to'la javob bera olmasligi, an'anaviy o'quv adabiyotlar, shuningdek, o'quv materiallarini bayon etadigan vizual ta'lim vositalari yordamida qurol-aslahalar, harbiy texnika bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyati mavjud emasligi ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda 60111000 – Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlari o'quv reja hamda dasturlariga raqamli texnologiyalarni bilish darajalarini rivojlantirishga qaratilgan "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fani 120 soat yuklama asosida 2-semestrda o'qitiladi va bo'lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish axborot xavfsizligini institutsional darajada ta'minlashga oid bilim hamda kompetensiyalarni egallash imkoniyatlari yaratilgan.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan pedagog o'quv mashg'ulotini optimal ravishda loyihalashni samarali amalga oshirish hamda mazkur ishlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishida o'quv yilida o'qitiladigan fanlar, fan dasturlari, o'quv rejalari tahliliga ko'ra. OTMlarda o'qitiladigan "Taktik tayyorgarlik", "Harbiy topografiya", "Harbiy qonunchilik asoslari", "Harbiy rahbar mahorati va etikasi" kabi o'quv fanlari o'qitiladi. Ushbu fanlarni o'qitish bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarida quyidagi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Harbiy intizomga amal qilish – Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimi yuqori darajadagi intizom va tartibni talab qiladi. O'qituvchilar talabalariga harbiy xizmatning asosiy tamoyillarini o'rgatishda intizom bo'lgan yuksak e'tiborini namoyon etishlari zarur. Harbiy intizom mustahkam asosda shakllanishi, harbiy xizmatga tayyorlanayotgan shaxslarning amaliy faoliyatida katta ahamiyatga ega.

Jismoniy tayyorgarlik – Harbiy ta'lim o'qituvchilari uchun jismoniy tayyorgarlikning o'рни beqiyosdir. Ular jismoniy mashqlar va tayyorgarlikni o'zlari

amalg oshirishi, shu bilan birga, talabalarga ham bu jarayonda namunali bo'lishlari lozim. Harbiy o'qituvchilar jismoniy va psixologik chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni qo'llashda davom etishlari kerak.

Ruhiy chidamlilik – Chaqiriqqacha harbiy ta'limning maqsadi, shuningdek, talabalarning ruhiy chidamliligini oshirishdan iboratdir. O'qituvchilar yuqori stressli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish va muammolarga mukammal javoblar berish orqali, talabalarga ruhiy bardoshlilikni o'rgatishlari zarur. Ruhiy chidamlilik harbiy xizmatda samarali faoliyat olib borish uchun muhim psixologik qobiliyat hisoblanadi.

Kommunikatsiya va liderlik ko'nikmalari – Chaqiriqqacha harbiy ta'limda kommunikatsiya va liderlik ko'nikmalarining rivojlanishi alohida e'tiborga loyiqdir. O'qituvchilar samarali muloqot orqali talabalar bilan doimiy aloqada bo'lib, chaqiriqqacha harbiy ta'lim jarayonini boshqarish, guruhni boshqarish va motivatsiya berishda yuqori darajada malakali bo'lishlari kerak.

Strategik fikrlash – Harbiy o'qituvchilar, strategik fikrlashni talabalarga o'rgatishda, shuningdek, o'zlarining bu ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishlari kerak. Ular murakkab harbiy vaziyatlarda tezkor va oqilona qarorlar qabul qilishda talabalarga namuna bo'lishi zarur.

Texnik va harbiy bilimlar – O'qituvchilar harbiy texnologiya, o'qotar qurollar taktik-texnik tavsiflari haqidagi chuqur bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Harbiy bilimlarning to'liq va mukammal egallanishi o'qituvchining sifatli ta'lim berishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xavfsizlik va ehtiyotkorlikni ta'minlash – Harbiy o'qituvchilar xavfsizlik choralariga qat'iy amal qilgan holda talabalarga xavfsizlik qoidalarini o'rgatishlari zarur. O'qituvchilar qurollar va harbiy texnika bilan ishlashda ehtiyotkorlikni ta'minlashning ahamiyatini tushuntirishlari shart.

Ijtimoiy va etika masalalariga oid bilimlar – Chaqiriqqacha harbiy ta'limning muhim jihatlaridan biri, o'qituvchilarning ijtimoiy va etika masalalariga bo'lgan yondashuvidir. O'qituvchilar harbiy etikaning tamoyillarini, jamoaviy ruhni, va o'zaro hurmatni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi.

Motivatsiya va o'qitish uslublari – Chaqiriqqacha harbiy ta'limning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar talabalarni o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga undovchi motivatsion uslublarni qo'llashlari kerak. Bu talabalarning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishi va o'qitish jarayoniga faol jalb qilishga yordam beradi.

Kreativlik va innovatsion yondashuvlar – Chaqiriqqacha harbiy ta'limda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlar katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni va pedagogik metodlarni qo'llash orqali, chaqiriqqacha harbiy ta'limni yanada samarali va zamonaviy qilishga xizmat qilishi lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi murakkab, ko'p omilli hodisa bo'lib, u yagona, yaxlit tuzilishni ifodalaydi. Binobarin, bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi ta'lim mazmuniga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali samarali shakllanishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni qo’llashning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida elektron ta’lim resurslari va ularning chaqiriqqacha harbiy ta’lim samaradorligini oshirishdagi o’rni o’rganilgan, raqamli texnologiyalari yordamida chaqiriqqacha harbiy ta’lim samaradorligini oshirishning shakl, metod va vositalari hamda chaqiriqqacha harbiy ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning pedagogik modeli yoritilgan.

Pedagogik ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish va pedagogik ta’limning sifat-samaradorligini oshirish, intellektual salohiyatga ega milliy pedagog kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning dasturiy vositalari yordamida o’quv materiallarini shakllantirish chora-tadbirlari ko’rilmoqda.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida “Otish tayyorgarligi” fani bo’yicha elektron o’quv qo’llanma AutoPlay dasturining mavjud imkoniyatlariga tayangan holda tayyorlandi. Uning tarkibiy qismi vizual matnlar, rasmlar, grafiklar, animatsiyalar va nazorat testidan iborat.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimida sifat jihatdan yangi yondashuvlarni shakllantirishni talab etadi. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Chaqiriqqacha harbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari zamonaviy raqamli infratuzilma, innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagoglarning raqamli kompetentligi, axborot xavfsizligi talablari hamda pedagogik monitoring tizimlarining o’zaro uyg’unligini ta’minlash asosida shakllanadi. Ushbu shart-sharoitlar harbiy-pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va kelajakdagi harbiy mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Birinchidan, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning qo’llanilishi uchun zamonaviy raqamli infratuzilmaning mavjudligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida kompyuter texnikasi, multimediya vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari bilan jihozlangan maxsus auditoriyalar tashkil etilishi zarur. Shu bilan birga, yuqori tezlikdagi internet tarmog’ining mavjudligi masofaviy ta’lim elementlarini tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni chaqiriqqacha harbiy ta’lim jarayoniga integratsiyalash pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlarini rivojlantirishni talab etadi. Xususan, interaktiv o’quv platformalaridan foydalanish, elektron resurslar asosida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etish, gamifikatsiya elementlarini tatbiq etish kabi yondashuvlar talabalarning bilim olish motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish zarur. Zamonaviy harbiy-pedagogik jarayonning samaradorligi pedagoglarning raqamli didaktik vositalarni qo’llay olishiga, axborot xavfsizligi tamoyillarini tushunishiga hamda masofaviy ta’lim muhitida ishlash ko’nikmalariga bog’liq. Shu sababli o’qituvchilar uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. To’rtinchidan, raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’lim jarayonida harbiy intizom va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish zarur. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim

muassasalarida elektron ta'lim platformalaridan foydalanishda maxfiylik siyosati, ma'lumotlarni himoya qilish tizimlari va kiberxavfsizlik choralari qat'iy tartibga solinishi lozim. Raqamli texnologiyalarni qo'llash shart-sharoitlari nafaqat texnik, balki huquqiy-me'yoriy jihatdan ham asoslangan bo'lishi kerak. Beshinchidan, chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash uchun pedagogik monitoring va baholash tizimini takomillashtirish muhimdir. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun elektron test tizimlari, avtomatlashtirilgan reyting tizimlari va adaptiv ta'lim vositalaridan foydalanish lozim. Bu esa ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.


Chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim jarayonining transformatik-kompleks evolyutsiyasini, o'quv kontentining innovatsion dizayni va analitik-refleksiv sinergiyasi uzviyligini ta'minlovchi, adaptiv va proaktiv himoya mexanizmlarini konvergentsiyalashga asoslangan pedagogik tizim sifatida takomillashtirilgan.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'limni amalga oshira olish, o'z-o'zini baholash katta ahamiyatga ega. Talabalar "Otish tayyorgarligi" fanini o'rganish jarayonida dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qotar qurollardan foydalanish kabi bilimlarni egallaydilar. Bunda bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarni ABL (Agile-Blended Learning) metodologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturlash, loyiha, mobil viktorina, bulutli tadqiqot kabi innovatsion ta'lim texnologiyalarining transdissiplinar integratsiyasini ta'minlovchi konvergent-didaktik model sifatida takomillashtirildi. Vosita sifatida AutoPlay, 3ds Max kabi raqamli texnologiyalar vositalaridan samarali foydalanilgan holda "Otish tayyorgarligi" fani bo'yicha yaratilgan raqamli ta'lim kontentining tipologik tuzilmasi belgilandi. Natijada talabalarda ixtirochilik, mantiqiylik, mustaqil ishlash, ijodiy jarayonlarni boshqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari asosida "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning pedagogik modeli" ishlab chiqildi (1-rasm).

Model – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Modelning taqribiylik xarakteri turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tajriba o'tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta'sir etadi. Modellash – bilish obyektlarini ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash hamda o'rganishdir. Modellash uslublaridan hozirgi zamon fanlarida keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarni o'rganishning yagona vositasiga aylanadi.

Pedagogik modellash – pedagogik nazariya va amaliyotda texnologiyani ishlab chiqish mexanizmidir. Shuningdek, pedagogik modellash kelgusi faoliyatning taxminiy variantlarni yaratish va uning natijalarini bashorat qilishdan iborat. Model – loyihalashtirish shakllaridan biri bo'lib, u orqali asosiy nuqtayi nazar, yetakchi g'oya, pedagogik tizimlar yoki jarayonlarni qurishning nazariy boshlang'ich tamoyillari bayon qilinadi.



1-rasm. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning pedagogik modeli.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning konseptual-metodik tizimiga asoslangan pedagogik model ishlab chiqildi. Ushbu model ta'lim oluvchilarning differensial va individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oluvchi, innovatsion va dinamik o'quv elementlarining transformatsiyalanuvchi komponentlari variativligini ta'minlovchi metarefleksiv yondashuvlarni ICAP (Interactive–Constructive–Active–Passive) ta'lim sikli bilan integratsiyalash asosida takomillashtirildi. Bunda raqamli ta'lim muhitidagi interaktiv hamkorlik, konstruktiv bilim hosil qilish, faol ishtirok va passiv qabul qilish bosqichlarining o'zaro uyg'unligi ta'minlanib, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, refleksiv tahlil qilish ko'nikmalari hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim shakllantiriladi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning pedagogik modeli uchta blokdan (maqsad, texnologik-jarayonli, natija) iborat.

Modelda ijtimoiy buyurtma sifatida "DTS talablari asosida malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash" nazarda tutilgan. Maqsad sifatida "Chaqiriqqacha harbiy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish"ga e'tibor qaratiladi.

Talabalarni raqamli texnologiyalardan foydalanib an'anaviy dars usullariga zamonaviy usullarni konvergensiya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining raqamli texnologiyalarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy, amaliyotga yo'naltirilgan, strategik, innovatsion hamda analitik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. "Ottish tayyorgarligi" fanini o'qitish jarayoni talabalarda harbiy bilimlarning nazariy asoslarini shakllantirish va maxsus tayyorgarlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan holda takomillashtirildi.

Mazkur jarayonda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilib, sun'iy intellekt (AI), Data Science, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalariga asoslangan interaktiv va multimodal o'quv muhiti shakllantirildi. Shu asosda o'quv mashg'ulotlari OODA (Observe–Orient–Decide–Act) modeliga integratsiyalashtirilib, talabalarining vaziyatni kuzatish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va amaliy harakatlarni bajarish kompetensiyalarini rivojlantiruvchi pedagogik-didaktik mexanizmlar takomillashtirildi.

O'quv faoliyati doirasida ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan, moslashuvchan (flexible), o'zgaruvchan va integrativ xususiyatga ega ta'limiy elementlardan foydalanish orqali talabalar ehtiyojlariga yo'naltirilgan adaptiv o'quv mazmuni shakllantirildi. Bu esa talabalarining individual qobiliyatlari, tayyorgarlik darajasi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar asosida fan dasturlarini modernizatsiya qilish hamda "Ottish tayyorgarligi" fanini o'qitishning interaktiv va multimodal o'quv jarayonini takomillashtirish imkonini berdi.

"Ottish tayyorgarligi" o'quv fani asosida talabalarda harbiy bilimlarning nazariy asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Mazkur jarayonni tashkil etishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, o'quv faoliyati doirasida ilg'or

innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan, moslashuvchan (fleksibl), yangilanib boruvchi (o'zgaruvchan) va integrativ xususiyatga ega ta'limiy elementlardan foydalanish orqali talabalar ehtiyojlariga yo'naltirilgan, moslashuvchan o'quv mazmunining talabalarning individual qobiliyatlari, tayyorgarlik darajasi va raqamli kompetensiyalarini oshirishga xizmat qilishiga doir ilmiy tavsiyalar asosida fan dasturlari takomillashtirildi.

